

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

QODIROV MUHSINJON MUHTORJON O‘G‘LI

**QO‘QON SHAHRI ZAMONAVIY INFRATUZILMALARINING
SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI (1991–2022-YILLAR)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Qodirov Muhsinjon Muhtorjon o‘g‘li

Qo‘qon shahri zamonaviy infratuzilmalarining shakllanishi va taraqqiyoti
(1991–2022-yillar)3

Кодиров Мухсинжон Мухторжон угли

Формирование и развитие современной инфраструктуры города Коканда
(1991–2022 гг) 25

Kodirov Muhsinjon Muhtorjon ugli

Formation and development of modern infrastructure of the city of Kokand
(1991–2022).....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

QODIROV MUHSINJON MUHTORJON O‘G‘LI

**QO‘QON SHAHRI ZAMONAVIY INFRATUZILMALARINING
SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI (1991–2022-YILLAR)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Tar1666 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (www.fdu.uz) va «ZiyoNET» axborot ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yo'ldoshev Salimjon Valiyevich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Yermetov Avaz Abdullayevich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Nuriddinov Turdali Qambarovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "2" 05 soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, Tarix fakulteti, 2- qavat, 219-xona. Tel.: (99873) 244-44-02; Faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz. Farg'ona davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (738 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, ARM binosi). Tel.: (99873)244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "14" 04 kuni tarqatildi
(2026-yil "14" 04 dagi 7 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.A.Usmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.f.d. (DSc), professor

A.B.Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.f.d. (PhD)

M.G.Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.f.d.
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Zamonaviy globallashuv sharoitida shaharlar savdo-sotiq, ilm-fan, madaniyat markazlari sifatida ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, urbanizatsiya sharoitida shaharlar tarixiylikni saqlab qolgan holda infratuzilmalarini rivojlantirish, transport va muhandislik kommunikatsiya tizimlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash zaruriyati ko'zga tashlanmoqda. Shaharlar infratuzilmalarini rivojlantirishdagi jahon amaliy tajribalarini o'rganish va uni tarixan shakllangan shaharsozlik an'analari bilan uyg'unlashtirish, shahar hududlarini kompleks rivojlantirish, aholining turmush darajasini yaxshilash, zamonaviy transport va muhandislik kommunikatsiya xizmatlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy o'quv yurtlarida zamonaviy shahar madaniyati taraqqiyoti, xususan, me'morchiligi, klassifikatsiyasi va tipologiyasi, aholi demografiyasi, migratsiya, urbanizatsiya hamda aglomeratsiya¹ jarayonlari, shuningdek, shaharlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuzasidan keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Global Urban Development (GUD – 2001), Cities Alliance (1999), International Society of City and Regional Planners (ISOCARP – 1965), European Urban Knowledge Network (EUKN), International Institute for Environment and Development (IIED)² kabi bir necha xalqaro tadqiqot markazlarida mazkur masala bo'yicha salmoqli ishlar bajarilmoqda. Yangi siyosiy-iqtisodiy munosabatlarga o'tish sharoitida O'zbekistonda, xususan Farg'ona vodiysi milliy va mintaqaviy iqtisodiyotini tadrijiy rivojlantirish, hududlar infratuzilmalari, transport – kommunikatsiya tarmoqlarining zamon talablari asosida tashkil etilish hamda kompleks rivojlantirish masalalarini tadqiq etish zaruriyatini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda ularning eksport salohiyatini oshirish, shaharlar transport-muhandislik kommunikatsiya va savdo tizimlarini rivojlantirish jarayonlari davlat siyosatiga aylangan. Ayniqsa, bugungi kunda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilash, aholi turmush tarzi farovonligini oshirish, urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi me'yoriy-huquqiy asoslar bazasi yaratilmoqda. Zero, Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Urbanizatsiyani rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, uy-joy qurilishining moliyaviy bazasini mustahkamlash oldimizda turgan muhim vazifalardan hisoblanadi"³.

¹ Aglomeratsiya – demografiyada yirik shahar va uning atroflaridagi qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar orqali birlashib, bir yagona demografik-xo'jalik hududini tashkil etishini anglatadi. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. А ҳарфи. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси». – Тошкент. Давлат илмий нашриёти. – Б. 149.

² <https://www.globalurban.org/> (10.06.2023); <https://www.citiesalliance.org/>(10.06.2023); <https://isocarp.org/> (10.06.2023); <https://eukn.eu/>; <https://www.iied.org/> (10.06.2023).

³ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2024. – Б. 369.

2021-yilning 22-fevralidagi “O‘zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksini tasdiqlash haqida”gi O‘RQ-676-sonli qonun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi “2017–2019-yillarda “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarining transport, ishlab chiqarish hamda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-341-sonli, 2017-yil 22-avgustdagi “2017–2019-yillarda Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahrini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi VM-658-sonli, 2017-yil 2-sentabrdagi “Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon, Qo‘qon shaharlari va Rishton tumanida hunarmandchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 687-sonli, 2019-yil 14-dekabrda “2020–2024-yillarda Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi VM-1001-sonli qonun va qarorlar⁴da ilgari surilgan vazifalarni hamda Qo‘qon shahri shaharsozligining soha tarmoqlariga oid huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qo‘qon shahrining tarixi va rivojlanish bosqichlari har davrda tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Mazkur shaharning tadqiqot obyekti bo‘lishiga sabab uning qadimdan iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatida, jumladan, xonliklar davrida poytaxt vazifasini bajarganligi bilan izohlash mumkin. Ushbu mavzu tarixshunosligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, xronologik davrga oid tadqiqotlar asosan, mustaqillik davrida turli fan soha vakillari tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, Qo‘qon shahri zamonaviy infratuzilmasining shakllanishi va taraqqiyoti masalasi alohida tarixiy aspektida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Tahlilga tortilgan mavzuga doir ilmiy tadqiqot ishlarini ikkita guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Mahalliy tadqiqotlar.
2. Xorijiy tadqiqotlar.

Birinchi guruhni asosan, mustaqillik davrida nashr etilgan ishlar tashkil etadi. Mazkur guruhdagi tadqiqotlarni esa quyidagicha tarmoqlarga bo‘lib o‘rganish mumkin: a) o‘rganilayotgan xronologik davrga oid tadqiqotlar, b) fan

⁴ O‘zbekiston Respublikasining 2021-yilning 22-fevralidagi O‘RQ-676-sonli “O‘zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksini tasdiqlash haqida”gi Qonuni // <https://lex.uz/uz/docs/-5304609>; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VM-341-sonli 2017-yil 2-iyundagi “2017–2019-yillarda “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarining transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-3230802>; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-avgustdagi VM-658-sonli “2017–2019-yillarda Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahrini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi Qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-4875218>; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14-dekabrda VM-1001-sonli “2020–2024-yillarda Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-4645514>.

tarmoqlariga doir ishlar. Fan tarmogʻlari boʻyicha esa quyidagi yoʻnalishlarni ham ajratib koʻrsatish mumkin: 1. Arxitekturaga oid adabiyotlar. 2. Iqtisodiyot va tabiiy fanlar yoʻnalishi boʻyicha nashr etilgan ishlar. 3. Madaniy-maʼrifiy sohaga oid ilmiy tadqiqotlar.

Shahar infratuzilmasi tarixini mustaqillik yillari bilan bogʻlash maqsadida oʻrganilayotgan mavzuning xronologik davriy chegarasigacha boʻlgan adabiyotlar ham tahlilga tortildi. Masalan, V.A.Akramov, F.Gaffarov va A.A.Mahkamovlarning tadqiqotlarini keltirish mumkin⁵. Ushbu tadqiqotchilar asosan, Qoʻqon shahrining ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotining mustaqillik davrigacha boʻlgan xronologik davr doirasida tadqiqot olib borganlar. Xususan, bu borada V.A.Akramovning tadqiqotida Qoʻqon shahrining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining rivojlanishi hamda demografik holati, F.Gaffarov hamda A.Mahkamovlarning tadqiqotlari esa asosan, Qoʻqon shahrining Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalariga bagʻishlangan hayoti yoritilgan.

Mustaqillik davrida nashr etilgan tadqiqotlarning ayrimlari oʻrganilayotgan mavzuning xronologik davriga mos kelmasa-da, Qoʻqon shahrining zamonaviy qiyofasini yoritish va uzviyligini taʼminlashda ilmiy-qiyosiy tahlil vazifasini bajardi. Jumladan, U.U.Mansurov, D.E.Toʻxtaboyeva, I.T.Yoʻldoshev, S.N.Yusupova, X.I.Mamadaliyev, Oʻ.Q.Hoshimov, O.O.Bozorov, A.A.Isayev, M.X.Xadjamuratova va Sh.M.Rahmatullayevlarning tadqiqotlarida Fargʻona vodiysida shaharlarning kelib chiqishi, ularning rivojlanish bosqichlari, mustaqillik yillarida katta va kichik shaharlarning rivojlanish anʼanalari, demografik holati, taʼlim tizimidagi oʻrni, transport hamda kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishi, ularning shahar infratuzilmasiga taʼsiri haqida ilmiy qarashlar ilgari surilgan⁶.

Masalan, vodiy shaharlarini 1917–1924-yillarga oid tarixini oʻrgangan U.U.Mansurovning tadqiqotida Qoʻqon shahriga oid maʼlumotlar keltirilgan, lekin

⁵ Акрамов В.А. Социально-экономическая и культурная жизнь города Коканда. Автореферат дисс. канд.ист.наук. – Ташкент, 1973. – 56 с.; Гаффаров Ф. Экономические и политические связи России с Кокандским ханством в первой половине и 60–70 годах XIX века. – Автореферат дисс. канд.ист.наук. – Ташкент, 1970. – 52 с.; Махаммов А.А. Роль города Коканда в развитии экономических связей Средней Азии с Россией и с сопредельными странами в XIX – начале XX века. Автореферат дисс. канд.ист.наук. – Ташкент, 1988. – 22 с.

⁶ Мансуров У.У. 1917–1924-йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2018. – 164 б.; Тўхтабоева Д.Э. Фарғона водийси вилоятларидаги кичик ва ўрта шаҳарларнинг ривожланиши: ўзгаришлар ва муаммолар (1991–2016 йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019. – 163 б.; Йўлдошев И.Т. Фарғона водийсида шаҳарсозлик маданиятининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи. Тарих фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2011. – 168 б.; Юсупова С.Н. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг миллатлараро муносабатларга таъсири. (1991–2016 йиллар, Андижон, Наманган ва Фарғона вилоятлари мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019. – 147 б.; Mamadaliyev X.I. Fargʻona vodiysi shaharlari tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Monografiya. – Toshkent: Fan ziyosi, 2022. – 117 b.; Ҳошимов Ў.Қ. Мустақиллик йилларида Фарғона водийси вилоятларида таълим соҳасидаги ўзгаришлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2020. – 190 б.; Бозоров О.О. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистондаги миллатлараро муносабатлар тарихи (Фарғона фожияси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси – Тошкент, 2019. – 170 б.; Хаджамуратова М.Х. Фарғона водийсининг демографик тарихи (1991–2006 йй.). Тарих фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2011. – 180 б.; Исаев А.А. Фарғона водийси транспорти ривожланишининг географик жиҳатлари. География фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2009. – 174 б.; Раҳматуллаев Ш.М. Мустақиллик шароитида Фарғона водийси шаҳарларида ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар (1991–1996 йиллар). Тарих фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2000. – 200 б.

alohida obyekt sifatida tadqiq etilmagan. Shuningdek, unda vodiy shaharlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'rni to'g'risida qisman aks etgan. D.E.To'xtaboyevaning ishi Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi kichik va o'rta shaharlarning rivojlanishi masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda Qo'qon shahri demografiyasi hamda rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, O'.Q.Hoshimov ta'lim sohasi, M.X.Xadjamuratova demografiya tarixi, S.N.Yusupova esa demografik jarayonlar va millatlararo munosabatlar masalalariga asosiy e'tibor qaratgan hamda Qo'qon shahri tarixiga oid ma'lumotlar ham keltirgan. Mazkur tadqiqotlar natijalaridan ishning tegishli bo'limlarida tahlil qilish jarayonida foydalanilgan.

O'zbekistonda samarali mintaqaviy siyosatni olib borish va hududlar infratuzilmasini barqaror rivojlantirishga bag'ishlangan ishlar M.Abdusalyamov, Q.Abdurahmanov, N.Ayimbetov, T.Ahmedov, B.Valiyev, Sh.Nazarov, A.Nizomov, B.Ro'zmetov, O.Olimjonov, A.Sodiqov, F.Egamberdiyev, Sh.Ermamatov, A.Qodirov, S.Zokirov, Sh.Otaboyev va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan⁷. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu tadqiqotchilarning ko'pchiligi masalaga iqtisodiy va ijtimoiy-geografiya asosida yondashganlar. Lekin, mustaqillik yillarida Qo'qon shahri infratuzilmasining shakllanishi va taraqqiyotiga tarixiy statistik ma'lumotlar asosida tadqiq etilmagan.

Shuningdek, fan tarmoqlari doirasida o'rganilganda me'morchilik yo'nalishi bo'yicha I.M.Mamadjanov, M.A.Yusupova hamda V.A.Nilsen⁸larning tadqiqotlarida Qo'qon arxitekturasi shakllanishi, shaharga xos tarixiy va me'moriy qismlarning qurilish jarayonlari hamda uslublari haqida ilmiy qarashlari ilgari surilgan.

Iqtisodiyot tarmog'i bo'yicha esa A.H.Ergashev, R.N.Rahmonov, B.A.Oxunov, M.S.Ashurov, M.M.Payazov, S.Musayeva va G.D.Xalmatjanova⁹lar

⁷ Абдусалымов М.О. О целях и методологических основах региональной политики. – Ташкент, 2015. – С. 6-11; Абдурахманов К. и др. Региональная экономика и управление. – Ташкент, 2007. – 750 с.; Аиметов Н. Мураккаб экологик вазият шароитида ижтимоий ва иқтисодий жараёнларни моделлаштириш (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида). Иқтисодиёт фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент, 2000. – 420 б.; Ахмедов Т.М. Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1993. – 80 с.; Назаров Ш. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов. – Ташкент, 2014. – 212 с.; Низамов А. Совершенствование системы управления региональной экономикой в условиях устойчивого экономического роста. Автореф. Дисс.д.э.н. – Ташкент, 2018. – 45 с.; Рузметов Б. Региональная экономика: опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. – Ташкент, 2002. – 220 с.; Олимжонов О. Вопросы повышения конкурентоспособности сельских районов // Агрэкономика. – 2017. – №1. – С. 7–12; Содиков А. Основы регионального развития: теория, методология, практика. – Ташкент, 2005. – 280 с.; Эгамбердиев Ф. ва бошқ. Минтақалар иқтисодиётининг рақобатбардошлигини ошириш. – Тошкент: Университет, 2020. – 204 б.; Кодиров А. и др. Региональная экономика. – Ташкент, 2018. – 239 с.; Зокиров С. Инструменты государственного регулирования комплексного развития регионов Узбекистана. – Ташкент: ИПМИ, 2015. – С. 94–101.

⁸ Мамаджанов И.М. Преемственное развитие градостроительной среды исторического города (на примере Коканда). Кандидатская диссертация по архитектуре. – Ташкент. 1994. – 151 с.; Юсупова М. А. Градостроительство и архитектура новых городов Ферганской долины конца XIX – начала XX вв. Автореф. Дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1994. – 43 с.; Нильсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана (XIX начало – XX веков). – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1988. – 208 с.

⁹ Эргашев А.Х. Худудларнинг инвестицион муҳит жозибадорлигини оширишда маркетинг стратегияларидан фойдаланиш истикболлари (Фарғона вилояти мисолида). Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа докт (PhD). дисс. – Фарғона, 2018. – 157 б.; Раҳмонов Р.Н. Фарғона минтақаси экспорт салоҳиятидан оқилона

o'z ilmiy tadqiqotlarida Qo'qon shahar iqtisodiyoti, sanoati, kichik va o'rta biznes tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalari qisman yoritilgan.

Madaniyat sohasi bo'yicha esa G'.M.Haydarov va S.M.Begmatov¹⁰larning tadqiqotlarida Qo'qon shahri madaniy hayoti bilan bog'liq ayrim jarayonlar yoritilgan. G'.M.Haydarovning tadqiqotida milliy an'anaviy san'atning sovet va mustaqillik davrida rivojlanish masalalarini Qo'qon shahrining hunarmandchilik an'analari misolida tahlil qilingan, S.M.Begmatovning ishida Farg'ona vodiysi xofizlik an'alarini tahlil qilingan bo'lsa-da, ularda madaniyatga oid tarixiy inshootlar qurilishi hamda shaharsozlik xususida bildirilgan fikrlar va dalillar diqqatga sazovor.

2. Xorijlik mualliflar tomonidan nashr etilgan asarlar. Xorijda nashr etilgan ko'plab asarlarning aksariyati Qo'qon xonligi tarixiga oid bo'lib, unda shaharsozlik ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, S.Levi, D.Burgart, T.Sabonis-Celf, Y.Skayler¹¹ kabi mualliflarning asarlari yaqin yillarda olib borilgan tadqiqotlarga bag'ishlangan bo'lib, unda mualliflar asosan, Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda Qo'qon shaharsozligiga ham qisman to'xtalganlar. Ingliz tilida chop etilgan Y.Skayler va S.Levining asari 1709–1876-yillarda Markaziy Osiyoda siyosiy o'zgarishlar natijasida Qo'qon xonligining rivojlanishi hamda qulashi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu dissertatsiya uchun tarixiy ekskursiya sifatida iqtisodiy, demografik va ekologik rivojlanishi masalalarini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qildi. Bundan tashqari, M.Bandman, R.Bennet, A.Granberg, R.Xarris, V.Kokren, O.Kuznetsova, E.Kolomak, M.Porter, S.Suspitsin, A.Shirov¹² va boshqalarning

foydalаниш ва уни такомиллаштириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2012. – 155 б.; Охунов Б.А. Ўзбекистон иқтисодиётининг барқарор ўсиши шароитида мақбул инвестиция муҳитини шакллантириш (Фарғона водийси вилоятлари мисолида). Иқтисодиёт фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2010. – 160 б.; Ашуров М.С. Саноат корхоналарида иқтисодий рискларни бошқаришнинг ташкилий-услубий механизми: Фарғона вилояти саноат корхоналари мисолида. Иқтисодиёт фанлари номзоди дисс. – Фарғона, 2006. – 139 б.; Паязов М.М. Бозор муносабатлари шаклланаётган шароитда қайта ишлаш саноати тармоқлари ривожланишининг ҳудудий муаммолари (Фарғона вилояти мисолида). Иқтисодиёт фанлари номзоди дисс. – Фарғона, 2006. – 196 б.; Мусаева С. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида тадбиркорликни ривожлантиришнинг таркибий-ижтимоий муаммолари (Фарғона вилояти кичик корхоналари мисолида). Иқтисодиёт фанлари номзоди дисс. – Фарғона, 2005. – 146 б.; Халматжанова Г.Д. Бозор муносабатлари шароитида минтақа иқтисодиётининг ривожланиш хусусиятлари (Фарғона водийси мисолида). Иқтисодиёт фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2004. – 154 б.

¹⁰ Ҳайдаров Ғ.М. Ўзбекистонда миллий анъанавий санъатнинг совет ва мустақиллик даврида ривожланиши тарихи (Фарғона водийси хунармандчилиги мисолида). Тарих фанлари номз. дисс. – Тошкент, 2011. – 166 б.; Бегматов С.М. Фарғона водийси ҳофизлик анъаналари (Содирхон Ҳофиз, Жўрахон Султонов ва Расулқори Мамадалиевлар ижоди мисолида). – Тошкент, 1995. – 127 б.

¹¹ Levi S. The Rise and Fall of Khoqand, 1709–1876 Central Asia in the Global Age. – Pittsburgh: University of Pittsburgh Press, 2017. – 258 p.; Burgart D., Sabonis-Celf T. Central Asia in the era of sovereignty: the return of Tamerlane? // International Affairs. – 2019. – Volume 95, Issue 6. – P. 1460–1462; Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат кайдлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 255 б.

¹² Бандман М.К. Формирование территориально-производственных комплексов. – Новосибирск, 1987. – 161 с.; Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. – Москва, 2004. – 495 с.; Xarris R. Models of Regional Growth Past, Present and Future. – Glasgow, 2008. – 36 p.; Cochrane W. Demand Driven Theories and Models of Regional Growth, 2013. – P. 259–276; Кузнецова О. Экономическое развитие регионов. – Москва, 2016. – 114 с.; Коломак Е.А. и др. Институциональная экономика. – Москва, 2018. – 107 с.; Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов. – Москва, 2016. – 114 с.; Суспицин С.А. Методы и модели координации долгосрочных решений в системе национальной экономики регионов. – Новосибирск, 2017. – 296 с.; Широу А.А. Многоуровневые исследования и долгосрочная стратегия развития экономики регионов. – Москва, 2015. – 175 с.

ishlarida mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, Farg'ona viloyati va Qo'qon shahar davlat, hokimliklar, viloyat hamda shahar statistika boshqarmalari joriy arxivlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek tashkilotlarning rasmiy ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari mavzuning manbaviy asoslarini tashkil etadi¹³.

Muammoning o'rganilgan tarixshunoslik va manbalari tahlili natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, aksariyat tadqiqotlarda Qo'qon shahrining xonlik davridagi hayoti yoritilgan bo'lib, shaharning mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayoti, zamonaviy infratuzilmasi hozirgacha tarixiy aspektda alohida tadqiqot sifatida to'liq o'rganilmagan. Shuning uchun mustaqillik yillarida zamonaviy Qo'qon shahri infratuzilmasining shakllanishi va taraqqiyoti tarixini o'rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Farg'ona davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni asosida tasdiqlangan "Yo'l xaritasi" doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1991–2022-yillarda Qo'qon shahrining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergan jarayonlar tarixini, zamonaviy o'zgarishlar va ularga ta'sir qilayotgan omillar hamda muammolarni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qo'qon shahri ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro'y bergan o'zgarishlar dinamikasi va zamonaviy infratuzilmalar yaratilishining huquqiy asoslarini ko'rsatib berish;

iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi va ularning shahar hayotiga ta'siri masalalarini o'rganish;

transport va muhandislik kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi hamda ularning shahar infratuzilmasiga ta'sirini ochib berish;

erkin iqtisodiy zonalarining shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri hamda chet el investitsiyalarini kiritilishining iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish;

shahar madaniy hayotida ro'y bergan muhim o'zgarishlar jarayonlarini o'rganish va ta'lim, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati dinamikasini ko'rsatib berish;

tadqiqot yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish hamda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qo'qon shahri zamonaviy infratuzilmalarining rivojlanishi va taraqqiyoti tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini 1991–2022-yillarda Qo'qon shahri hayotida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi tashkil etadi.

¹³ Farg'ona viloyati davlat arxivi, 1230-fond, Qo'qon shahar davlat arxivi, 1228-fond, Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi joriy arxivi; Qo'qon shahar Statistika bo'limi joriy arxivi, Qo'qon erkin iqtisodiy zonasi joriy arxivi, Respublika Prezidenti, Hukumatining, viloyat va shahar hokimligining (1992–2022-yillar) farmoyish va qarorlari.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, fanlararo yondashuv, qiyosiy tahlil, muammoviy-xronologik, ogʻzaki tarix, mikrotarix, sotsiologik tadqiqot kabi usullar qoʻllanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

shaharning tabiiy demografik oʻsishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi ijtimoiy-iqtisodiy, transport-muhandislik, shahar zamonaviy infratuzilmasining rivojlantirishidagi muammolarni keltirib chiqarganligi statistik maʼlumotlar asosida aniqlangan va ularni hal etish hamda barqaror rivojlantirishni taqoza etgan huquqiy-meʼyoriy asoslarni takomillashtirilishi dalillangan;

sanoat korxonalari hamda savdo tizimlarining rivojlanish xususiyatlari rasmiy, huquqiy va statistik manbalar asosida oʻrganilib, uning toʻrtta davrga boʻlish (iqtisodiy hayotni saqlab qolish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, eksport-import koʻrsatkichlarida ijobiy oʻzgarishlar, sanoat korxonalari tarmoqlarini rivojlantirish) mumkinligi asoslangan;

erkin iqtisodiy zonalarning shakllanishi shaharning ijtimoiy (aholining ish bilan taʼminlanishi, shahar zamonaviy meʼmoriy qiyofasining shakllanishi), iqtisodiy (yangi sanoat korxonalarining qurilishi, eksport-import salohiyatining ortishi) hayotiga, transport-muhandislik tuzilmalariga ijobiy taʼsir koʻrsatganligi statistik maʼlumotlar va arxiv hujjatlarining tahliliy dinamikasi asosida ochib berilgan;

yangi madaniy-maʼrifiy va taʼlim muassasalarining tashkil etilishi shahar zamonaviy madaniy muhiti, tolerantlikning taʼminlanishiga olib kelganligi rasmiy hamda huquqiy asoslar yordamida, shahar ijtimoiy hayoti va turizm salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar ogʻzaki tarix materiallari hamda sotsiologik tadqiqot natijalari yordamida yoritib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

Mustaqillik yillarida shaharlarning zamonaviy infratuzilmalarini shakllantirish tarixi, erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etish asnosida aholini ish bilan taʼminlash, ishlab chiqarishni rivojlantirish, savdo tarmoqlariga imkoniyat va qulayliklar yaratilishi tadqiq etildi.

Zamonaviy shaharlarni shakllantirish va rivojlantirishga oid arxiv xujjatlari, hukumat qarorlarini oʻrganish hamda ogʻzaki tarix materiallarini qiyosiy tahlillari asosida meʼmoriy imkoniyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy shahar qiyofasini yaratish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qoʻyilgan masalalar 1991–2022-yillarda Fargʻona viloyati davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlar¹⁴, viloyat davlat statistika qoʻmitasi viloyat arxivi materiallari¹⁵, Qoʻqon shahar davlat arxivi materiallari¹⁶, mahalliy hokimiyatning qaror va farmoyishlari¹⁷, shahar statistika boʻlimi hujjatlari¹⁸, Qoʻqon erkin iqtisodiy zonasi

¹⁴ Fargʻona viloyati davlat arxivi, Qoʻqon shahar arxivi, 1230-fond. 1-7-roʻyxatlar. Viloyat statistika boshqarmasi hujjatlari. 2127-fond.

¹⁵ Fargʻona viloyati davlat statistika qoʻmitasi viloyat arxivining yillik byulletenlari.

¹⁶ Qoʻqon shahar davlat arxivi. 1228-fond, 1-roʻyxat, 2015-, 2016-, 2017-, 2018-yillar kitoblari.

¹⁷ https://e-qaror.gov.uz/search?region_id=11&district_id=166.

¹⁸ Qoʻqon shahar statistika boʻlimining yillik toʻplamlari va hisobotlari. Fargʻona viloyati statistika boshqarmasi Qoʻqon shahrining statistik axborotnomasi. – Qoʻqon, 2023.

boshqaruv idorasi yillik hisobotlari¹⁹, shahar madaniyat muassasalari xodimlari bilan suhbatlar orqali to‘planib, tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mustaqillik yillarida Qo‘qon shahri zamonaviy infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tarixining hozirgi kundagi ilmiy tadqiqotlar, arxiv materiallari, statistik, rasmiy, huquqiy manbalar hamda adabiyotlar asosida yoritilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalar asosida Qo‘qon hamda zamonaviy shaharsozlik tarixiga oid tadqiqotlar olib borishda, Oliy va umumiy o‘rta ta‘lim tizimidagi o‘quv muassasalarining ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarda zamonaviy shaharlar tarixiga oid maxsus kurslar, sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish, darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Shaharning tabiiy demografik o‘sishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi ijtimoiy-iqtisodiy, transport-muhandislik, shahar zamonaviy infratuzilmasining rivojlantirishidagi muammolarni keltirib chiqarganligi statistik ma‘lumotlar asosida aniqlangan va ularni hal etish hamda barqaror rivojlantirishni taqoza etgan huquqiy-me‘yoriy asoslarni takomillashtirilishi dalillanganligiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanali faoliyatida “Tarix maydoni” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2025-yil 20-avgustdagi 01-33/628-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvning shaharning ijtimoiy-iqtisodiy, transport-muhandislik, shahar zamonaviy infratuzilmasining rivojlantirishiga oid ma‘lumotlar va ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta‘minlangan.

Sanoat korxonalari hamda savdo tizimlarining rivojlanish xususiyatlari rasmiy, huquqiy va statistik manbalar asosida o‘rganilib, uning to‘rtta davrga bo‘lish (iqtisodiy hayotni saqlab qolish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, eksport-import ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarishlar, sanoat korxonalari tarmoqlarini rivojlantirish) mumkinligi asoslanganligi haqidagi ma‘lumotlardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 29-sentabrdagi 10/621-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining zamonaviy raqamli targ‘ibot texnologiyalarini qo‘llash borasida rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish haqidagi targ‘ibot ishlarini tashkil etish jarayoni sanoat korxonalari hamda savdo tizimlarining rivojlanish xususiyatlari haqidagi ma‘lumotlar va ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta‘minlangan.

¹⁹ Qo‘qon erkin iqtisodiy zonasi joriy arxivi. Qo‘qon erkin iqtisodiy zonasi haqida ma‘lumot. – Qo‘qon, 2023. – B. 5.

Erkin iqtisodiy zonalarning shakllanishi shaharning ijtimoiy (aholining ish bilan ta'minlanishi, shahar zamonaviy me'moriy qiyofasining shakllanishi), iqtisodiy (yangi sanoat korxonalarining qurilishi, eksport-import salohiyatining ortishi) hayotiga, transport-muhandislik tuzilmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi statistik ma'lumotlar va arxiv hujjatlarining tahliliy dinamikasi asosida ochib berilganligiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali faoliyatida "Tarix maydoni" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2025-yil 20-avgustdagi 01-33/628-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuvning erkin iqtisodiy zonalarning, shahar ijtimoiy, iqtisodiy hayoti hamda transport-muhandislik kommunikatsiyalariga ta'siriga oid ma'lumotlar va ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan.

Yangi madaniy-ma'rifiy va ta'lim muassasalarining tashkil etilishi shahar zamonaviy madaniy muhiti, tolerantlikning ta'minlanishiga olib kelganligi rasmiy hamda huquqiy asoslar yordamida, shahar ijtimoiy hayoti va turizm salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar og'zaki tarix materiallari hamda sotsiologik tadqiqot natijalari yordamida yoritib berilganligi haqidagi ma'lumotlardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 29-sentabrdagi 10/621-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining zamonaviy raqamli targ'ibot texnologiyalarini qo'llash borasida rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish haqidagi targ'ibot ishlarini tashkil etish jarayoni madaniy-ma'rifiy, ta'lim muassasalari faoliyatiga oid ma'lumotlar va ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: Tadqiqot natijasida olinadigan xulosa va takliflar 9 ta, shu jumladan 3 ta respublika, 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 20 ta maqola va tezislar e'lon qilingan. Jumladan, tadqiqotning asosiy mazmuni, xulosa va natijalari O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan davriy nashrlardagi 11 ta, xususan, respublika jurnallaridagi 10 ta va xalqaro nashrlardagi 1 ta ilmiy maqolalarda aks etgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 153 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprotatsiyasi va tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qo‘qon shahri zamonaviy infratuzilmalarining shakllanishi”** deb nomlangan birinchi bobining dastlabki paragrafi “Shahar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotining lokal xususiyatlari va ijtimoiy-demografik holat” deb nomlanib, unda shaharning mustaqillik davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotining lokal xususiyatlari hamda ijtimoiy-demografik holati tahlil qilingan. Jumladan, Qo‘qon shahri ijtimoiy hayotidagi bir qancha o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Masalan, biri boshqa hududlarga nisbatan dinga o‘zgacha munosabatlarda ham ko‘zga tashlanadi. Bugungi kunda shaharda Changatlik masjidi (1917), Norbo‘tabiy Jome’ masjidi (1799), G‘ishtli jome’ masjidi, “Saodat” Jome’ masjidi²⁰, Avg‘onbog‘ Jome masjidi, Aziztepa masjidi²¹, Hazrati Abbos masjidi²², Shayxul Islom²³ masjidlari bilan birgalikda diniy tolerantlik tamoyili asosida Yevangeliya xristian-baptistlari ibodat uyi ham o‘z faoliyatini yuritib kelmoqda²⁴.

Shahar ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ajralmas qismlaridan biri bu bozorlar hisoblanadi. Mustaqillik davrigacha shahar hududida faqatgina yirik bozorlar bo‘lib, ular shahar markazidagi “Kappon” nomi bilan yuritiluvchi oziq-ovqat mahsulotlari, bugungi kundagi Yoshlar bog‘i o‘rnida “Chakana savdo” nomli kiyim-kechaklar, chorva-mol, mashina-texnika bozorlaridir²⁵.

Shu bilan birgalikda, shaharning demografik holati ham tahlil qilingan. Statistika ma'lumotlari tahlil qilsak, 1991–2022-yillarda aholi soni jami 179,1 mingdan 264,1 ming kishiga, ya'ni 85 mingga ortgan. Bu yerda aholi soniga ta'sir ko'rsatuvchi bir qancha omillar mavjud: 1) tug'ilish, 2) vafot etish, 3) ko'chib kelish, 4) ko'chib ketish (ichki va tashqi migratsiya). Tug'ilish ko'rsatkichini tahlil qiladigan bo'lsak, 1991–2022-yillarda rasmiy qaydlarga ko'ra, shahar hududida jami 145890 nafar chaqaloq tug'ilganligi qayd etilgan²⁶.

Migratsiya jarayonlari tahlil qilinganda, 1991-yilda 4477 kishi ko'chib kelgani holda 6010 kishi ko'chib ketgan va mexanik o'sish 1533 nafarni tashkil etgan. Shuningdek, Qo‘qon shahriga 1991–2022-yillarda umumiy hisobda 49858 nafar fuqaro ko'chib kelgan bo'lsa, aksincha, 74165 kishi ko'chib ketgan²⁷.

²⁰ Farg‘ona viloyati davlat arxivi (keying o‘rinlarda – FVDA). 1230-fond, 1-ro‘yxat, 27-yig‘majild, 89–90-varaqlar; 38-yig‘majild, 23-varaq; 116-yig‘majild, 284-varaq; 136-yig‘majild, 57-varaq.

²¹ FVDA. 1230-fond, 2-ro‘yxat, 20-yig‘majild, 70-varaq; 46-yig‘majild, 13–14-varaqlar.

²² FVDA. 1230-fond, 4-ro‘yxat, 51-yig‘majild, 18-varaq.

²³ Qo‘qon shahar davlat arxivi (QShDA). 1228-fond, 1-ro‘yxat, 12-kitob.

²⁴ FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yxat, 136-yig‘majild, 57-varaq.

²⁵ Qo‘qonda. Qo‘qonda kechki bozor // <https://www.youtube.com/shorts/6MejpIQ5Uuo>. (02.05.2025)

²⁶ Qo‘qon shahar statistika bo‘limi ma‘lumotnomasi. Qo‘qon shahrining 1991–2019-yillar davomida doimiy aholi soni va mexanik o‘shish to‘g‘risida ma‘lumot. – Qo‘qon, 2020. – B. 1.

²⁷ Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi Qo‘qon shahrining statistik axborotnomasi. – Farg‘ona, 2021. – B. 93. – Qo‘qon, 2023. – B. 33.

Mazkur bobning “Shahar zamonaviy infratuzilmalarning shakllanishi va rivojlantirishga oid huquqiy asoslarning yaratilishi” deb nomlangan ikkinchi paragrafida shahar zamonaviy infratuzilmalarining shakllanish va rivojlantirishga oid huquqiy asoslarini 2 bosqichga (1991-2016-yillar, 2017-2022-yillar) hamda uchta guruhga bo‘lib o‘rganildi. Jumladan, birinchi guruh Prezident, hukumat farmoyish va qarorlari; ikkinchisi viloyat hokimligi qaror va farmoyishlari; uchinchisiga esa shahar hokimligining infratuzilmaga bag‘ishlangan qaror va farmoyishlari kesimida guruhlandi.

Birinchi guruhda asosan, Respublika miqyosida 1991–2022-yillarda bevosita Qo‘qon shahri ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy hamda shaharsozligiga bevosita taalluqli bo‘lgan 24 ta va bilvosita 462 ta qonunosti, me’yoriy-huquqiy asoslar ishlab chiqilgan²⁸. Birinchi bosqichda 1991–2016-yillarda 11 ta hujjat qabul qilingan bo‘lib, ularning 8 tasida belgilangan vazifalar amalga oshirildi hamda o‘z kuchini yo‘qotgan. 3 tasida esa belgilangan vazifalar va o‘zgarishlar hozirgi kunga qadar ham amalda. Ikkinchi bosqich, ya’ni 2017–2022-yillarda esa 13 ta hujjat qabul qilingan bo‘lib, ularning 5 tasida belgilangan vazifalar amalga oshirildi hamda o‘z kuchini yo‘qotgan. 8 tasida esa belgilangan vazifalar va o‘zgarishlar hozir ham amalda hisoblanadi. Jumladan, hozirda ham amalda bo‘lgan hukumat qarorlari hamda me’yoriy hujjatlaridan quyidagilarini ko‘rsatish mumkin: “2017–2019-yillarda Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahrini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi²⁹, “2020–2024-yillarda Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi³⁰ qaror hamda farmon kabi hujjatlarni keltirish mumkin.

Mavjud huquqiy-me’yoriy hujjatlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, Qo‘qon shahrining zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish dastlab hukumat darajasida maxsus qaror hamda farmoyishlar bilan belgilanishi asosan 2000-yillardan boshlangan. Masalan, 2008-yil 5-maydagi PQ-860-sonli “Farg‘ona va Qo‘qon shaharlarini 2008–2012-yillarda rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi³¹, 2009-yil 15-dekabrda PQ-1239-sonli “Qo‘qon shahrining arxitektura qiyofasi va shahar infratuzilmasini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi³², 2010-yil 26-noyabrda 272-sonli “Qo‘qon va Namangan shaharlarida qurilgan dehqon bozorlari, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlaridan maqsadli va samarali foydalanish to‘g‘risida”gi³³ huquqiy-me’yoriy hujjatlar shular jumlasidandir.

Qo‘qon shahar zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishda va aholini uy-joy bilan ta’minlash, iqtisodiy zonalarni tashkil etish maqsadida uning hududlarini kengaytirish masalasiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar shakllantirildi. Jumladan, 2022-yil 13-sentabrda SQ-624-IV-sonli “Farg‘ona

²⁸ <https://lex.uz/uz/search/nat?query=QO%27QON>.

²⁹ 22.08.2017. 658-sonli VMQ. <https://lex.uz/uz/docs/-4875218>.

³⁰ 14.12.2019. 1001-sonli VMQ. <https://lex.uz/uz/docs/-4645514>.

³¹ 05.05.2008. 860-sonli PQ. <https://lex.uz/uz/docs/-1400710>.

³² 15.12.2009. 1239-sonli PQ. <https://lex.uz/uz/docs/-1579035>.

³³ 26.11.2010. 272-sonli VMQ. <https://lex.uz/ru/docs/-2284052>.

viloyatining Uchko‘prik, O‘zbekiston, Dang‘ara, Qo‘sh tepa, Toshloq, Farg‘ona tumanlari va Qo‘qon, Marg‘ilon, Farg‘ona shaharlari chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi³⁴ va Qo‘qon shahar hokimining 1997-yil 29-dekabr 284-sonli qarorlari asosida jami 3849,96 gektar yer shahar hududiga qo‘shib berildi³⁵.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rganish va ularning tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqot obyekti hisoblangan Qo‘qon shahrining zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalariga oid huquqiy hujjatlar shahar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi har bir o‘zgarishlar, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar tartibga solingan.

Dissertatsiyaning **“Shahar iqtisodiy hayotidagi holat va zamonaviy infratuzilmalar”** deb nomlangan ikkinchi bobi hududdagi sanoat korxonalari, savdo infratuzilmalari, transport hamda muhandislik kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi va Qo‘qon erkin iqtisodiy zonasi taraqqiyotiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning birinchi paragrafi “Sanoat korxonalari va savdo tizimlari infratuzilmalarining zamonaviylashuvi” deb nomlanadi. Unda shahar iqtisodiy hayotida sanoat korxonalari va savdo infratuzilmalarining shakllanish hamda rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan.

O‘rganilayotgan davr shaharning iqtisodiy holati va rivojlanishi hamda uning infratuzilmalarini to‘rt bosqichga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

- 1) 1991–2000-yillar – iqtisodiy hayotni saqlab qolish davri;
- 2) 2000–2010-yillar – shahar iqtisodiyotini tiklash davri;
- 3) 2010–2016-yillar – ishlab chiqarishni kengaytirish davri;
- 4) 2017–2022-yillar – iqtisodiyotni jadallashtirish davri.

Iqtisodiy hayotni saqlab qolish davrining dastlabki besh yilligida iqtisodiy sohada amalga oshirilgan savdo bitimlari tovar ayirboshlash (barter) shakli tartibga solingan³⁶. Masalan, Qo‘qon 1-paxta tozalash zavodida 1993–1994-yilda chet el va MDH davlatlariga barter uchun paxta tolasi jo‘natgani holda, uning o‘rniga choy, gurunch, kiyim-kechaklar, oziq-ovqat hamda neft mahsulotlari keltirilgan³⁷.

2000-yildan boshlab, korxonalarda umumiy mahsulot hajmiga eksportning ulushi 15-30 foizgachani tashkil etsa, soliq stavkasi 30 foizga, eksportning ulushi 30 foizdan ko‘p bo‘lsa, soliq stavkasini 50 foizgacha kamaytirilishi qayd etilgan³⁸.

Shahar iqtisodiy taraqqiyotidagi 2010-yildan boshlangan uchinchi bosqich ishlab chiqarishni kengaytirish davri hisoblanib, shahar iqtisodiyotida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 108,2, xalq iste‘mol mollarini ishlab chiqarish hajmi 110, chakana savdo aylanmasi esa 123 foizga ko‘tarilganligi³⁹ bilan izohlanadi.

³⁴ Xalq deputatlari Qo‘qon shahar kengashi qarori. Farg‘ona viloyatining Uchko‘prik, O‘zbekiston, Dang‘ara tumanlaridan Qo‘qon shahri tarkibiga o‘tkazilgan geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida. 2023-yil 9-avgust VI-65-75-11-166-K/23. <https://e-qaror.gov.uz/doc/1396524>

³⁵ FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yxat, 122-yig‘majild, 193–195-varaqlar.

³⁶ FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yxat, 46-yig‘majild, 64–65-varaqlar.

³⁷ FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yxat, 49-yig‘majild, 30–31-varaqlar.

³⁸ FVDA. 1230-fond, 2-ro‘yxat, 21-yig‘majild, 84-varaq.

³⁹ FVDA. 1230-fond, 5-ro‘yxat, 83-yig‘majild, 14-varaq.

Iqtisodiyotni jadallashtirish davri boshlangan 2017-yilda shahar hududida 944 ta sanoat korxonasi mavjud bo‘lib, shularning 10 tasi yirik, 934 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar (255 tasi yangi tashkil etilgan) tarkibiga to‘g‘ri keladi⁴⁰.

Tadqiqot davrining so‘ngi yili 2022-yilda ham shahar sanoat korxonalari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2021-yilga nisbatan 113,2 foizga o‘shib, umumiy hisobda 5471,1 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan⁴¹.

Shaharda ichki savdo ishlari, asosan, shahar hududida joylashgan bozorlar faoliyati bilan bog‘liqdir. 1995-yilda Alisher Navoiy mavzeyida (30 mingdan ortiq aholi) ikki million so‘mdan ortiq mablag‘ hisobidan 0,5 gektar maydonda dehqon bozori qurilgan⁴². 1996-yilda shahar hududidagi 7 ta bozorlar OAJ sifatida qayta tashkil qilingan⁴³. Shahar hokimining 2003-yil 15-dekabrda farmoyishi asosida shahardagi noqonuniy dori-darmon bozori faoliyatiga chek qo‘yilgan⁴⁴. 2004-yilda butun shahar hududida 5943 o‘rinli jami 11 ta (6 ta dehqon, 5 ta ixtisoslashgan) bozorlar faoliyat olib borgan⁴⁵. Shuningdek, 2012-yilda “Forobiy savdo kompleksi” MCHJ (maydoni 37238 m²)⁴⁶, “Buyuk ipak yo‘li savdo kompleksi” MCHJ (maydoni 9000,0 m²) hududidagi turg‘un savdo shaxobchalari qayta qurilgan⁴⁷.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida Qo‘qon shahri korxonalari va savdo tizimining holati 4 bosqichga bo‘lib o‘rganish natijasiga ko‘ra, yillar kesimida iqtisodiy hayot yangi bosqichda rivojlanish tendensiyalari asosida o‘shib bordi. Iqtisodiy rivojlanish o‘z navbatida shahar infratuzilmasining o‘zgarishi hamda zamonaviylashuviga ta‘sirini ko‘rsatdi.

Mazkur bobning “Transport va muhandislik kommunikatsiya tizimlarining shakllanishi” deb nomlangan ikkinchi paragrafida Qo‘qon shahrining transport (temiryo‘l, avtomobil yo‘llari, aeroport) hamda muhandislik kommunikatsiya (gaz, elektr, ichimlik va oqova suv tarmoqlari) tizimlarining o‘rganilayotgan davr mobaynida shakllanish jarayonlari tahlil qilingan.

Zamonaviy Qo‘qon shahrining umumiy maydoni 0,037 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi. Tarkibida jami 68 ta MFY va 2 ta aholi punkti mavjud⁴⁸. 2022-yil holatiga shaharda jami 696 ta ko‘cha bo‘lgan⁴⁹. Shahar hududining tabiiy joylashuvi transport va muhandislik kommunikatsiya tizimlarining tarmoqlarini

⁴⁰ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi Qo‘qon shahar statistika bo‘limining 2016–2018-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to‘g‘risida Axborotnoma. – Qo‘qon, 2019. – B. 24.

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi Qo‘qon shahri statistik axborotnomasi. 2022-yil yanvar-dekabr. – Qo‘qon, 2023. – B. 6-7.

⁴² FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yxat, 77-yig‘majild, 132–133-varaqlar.

⁴³ FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yxat, 96-yig‘majild, 193–194-varaqlar; 100-yig‘majild, 184–185-varaqlar; 101-yig‘majild, 227–228-varaqlar; 103-yig‘majild, 253-varaq; 104-yig‘majild, 174–175-varaqlar; 122-yig‘majild, 9-varaq.

⁴⁴ FVDA. 1230-fond, 4-ro‘yxat, 16-yig‘majild, 308–309-varaqlar.

⁴⁵ FVDA. 1230-fond, 4-ro‘yxat, 43-yig‘majild, 33-varaq.

⁴⁶ FVDA. 1230-fond, 7-ro‘yxat, 18-yig‘majild, 197–198-varaqlar; 48-yig‘majild, 40–41-varaqlar.

⁴⁷ FVDA. 1230-fond, 7-ro‘yxat, 42-yig‘majild, 121–122-varaqlar.

⁴⁸ Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi Qo‘qon shahrining statistik axborotnomasi. 2022-yil yanvar-dekabr. – Qo‘qon, 2023. – B. 5.

⁴⁹ Qo‘qon shahar hokimiyati joriy arxivi. Qo‘qon shahar Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi ma‘lumotnomasi. Qo‘qon shahar ko‘cha nomlari. – Qo‘qon, 2023. – B. 12.

yaroqlilik muddatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ishlashi uchun ma'lum muammolarni vujudga keltirgan.

1995-yilda jami 30 kilometr uzunlikdagi xalqaro ahamiyatga ega 1 ta (jami 5 kilometr), davlat ahamiyatiga ega 7 ta avtomobil (jami 25 kilometr) yo'llari ta'mirlanib, Qo'qon yo'l va ko'priklar qurish boshqarmasi hisobiga topshirilgan⁵⁰. 2015-yilda belgilangan dastur bo'yicha yo'llarni jami 8 kilometr masofasini to'la ta'mirlash uchun 4 milliard 400 million so'm, 4p-17e avtomobil yo'lining 4-9- kilometrda qurilish-montaj ishlarini olib borish uchun 10 milliard so'm mablag' ajratilgan⁵¹.

O'rta Osiyo temir yo'li Farg'ona bo'limining "Qo'qon stansiyasini kengaytirish haqida"gi qaroriga ko'ra, stansiya hududi kengayishi uchun 1992-yilda O'zbekiston tumanining Lunacharskiy, Achchiqko'l, Oyimqishloq va Ingichka qishloqlarida 38 ta shaxsga tegishli, umumiy qiymati 955364 so'm bo'gan xususiy uy-joylar buzilgan⁵².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-iyundagi PQ-1985-sonli qaroriga⁵³ ko'ra, "Angren-Pop" temiryo'lining umumiy uzunligi 123,1 kilometr bo'lib, loyihaning qiymati 1,6 milliard dollarni tashkil qilgan⁵⁴. Shuningdek, Qo'qon aeroportidagi parvozlarni 1977-yildan⁵⁵ An-24 va Yak-40 samolyotlari orqali qisqa masofali Toshkent, Andijon, Namangan, Farg'ona, Xo'jand hududlariga amalga oshirilgan⁵⁶. 2000-yildan esa ushbu aeroportdan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining uchish-qo'nish yo'lagi sifatida foydalanilgan⁵⁷.

Shahar muhandislik kommunikatsiya tizimini ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, yangi tarmoqlarni shakllantirish ishlari maqsadida shahar hokimining 1992-yilgi 292-F sonli farmoyishi⁵⁸ hamda 1997-yilda shahar ko'chalarini yoritish tarmoqlari va ularni ekspluatatsiya qilish uchun 5 million 788 ming, 1998-yilning birinchi yarim yilligida esa 2 million 432 ming so'mlik ishlar amalga oshirilgan⁵⁹. Bundan tashqari, "Qo'qongaz" idorasi tomonidan 1997-yilda 456 ta xonadon gazlashtirilib, 6673 metr gaz quvuri⁶⁰, 1998-yil yakunlariga ko'ra esa 226 ta xonadon gazlashtirilib, 5,492 kilometr uzunlikdagi gaz quvurlari tortilgan⁶¹.

1997-yilda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida To'lash qishlog'ida bir kecha kunduzga 50 ming m³dan ziyod suv chiqaradigan inshoot qurilishi uchun viloyatdan 5 million so'm mablag' ajratilgan⁶². 1998-yil kuz-qish mavsumiga kelganda, "Issiqlik manbai" korxonasi shaharning 22 ta sog'liqni saqlash muassasasi, 51 ta xalq ta'limi muassasasi, 3 ta oliy o'quv yurti, 136 ta turli

⁵⁰ FVDA. 1230-fond, 1-ro'yxat, 105-yig'majild, 79-82-varaqlar.

⁵¹ QShDA. 1228-fond, 1-ro'yxat, 13-kitob, (2015). 1a-ilova. 80-varaq; 1b-ilova. 81-varaq. 1v-ilova. 82-varaq.

⁵² FVDA. 1230-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'majild, 12-14-varaqlar; 15-16-varaqlar.

⁵³ QShDA. 1228-fond, 1-ro'yxat, 17-kitob, (2015), 24. 12. 2015. 106-F-sonli farmoyish.

⁵⁴ Angren-Pop temir yo'li 2016-yilning mart oyida ochiladi. O'zbekiston. 09.11.2015. <https://kun.uz/113160>. (30.04.2025)

⁵⁵ Аэропорт Коканд // https://openjicareport.jica.go.jp/pdf/11469301_03.pdf. – С. 3–40, 3–42. (30.04.2025)

⁵⁶ Qo'qon aeroporti // https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBqon_aeroporti#cite_note-2. (30.04.2025)

⁵⁷ O'sha joyda.

⁵⁸ FVDA. 1230-fond, 1-ro'yxat, 18-yig'majild, 198-varaq.

⁵⁹ FVDA. 1230-fond, 1-ro'yxat, 127-yig'majild, 32-varaq.

⁶⁰ O'sha joyda.

⁶¹ FVDA. 1230-fond, 2-ro'yxat, 16-yig'majild, 9-10-varaqlar.

⁶² FVDA. 1230-fond, 1-ro'yxat, 127-yig'majild, 32-varaq.

korxonalar va tashkilotlar va 45000 nafar aholini uzluksiz issiq suv va issiqlik bilan ta'minlagan⁶³.

Qo'qon shahar hokimining 2008-yildagi 475-sonli qarori asosida "Shahar kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi" tuzilgan⁶⁴. Natijada 2009-yilda issiqlik tarmoqlaridan 3,9 kilometr, suv tarmoqlaridan 1,6 kilometr, gaz tarmoqlaridan 9,4 kilometr, 16 ta qozonxonalar, 18 ta qozon, 1 ta maktab, 1 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 2 ta mehribonlik uyi, 1 ta kasalxonalar, 385 ta ko'p qavatli uylar joriy ta'mirdan chiqarildi⁶⁵.

2017-yilda shahar muhandislik kommunikatsiya tizimida 2 ta markazlashgan va 9 ta lokal qozonxonalar (28 ta qozon), 25,6 kilometr issiqlik tarmog'i, 354,5 kilometr suv quvurlari tarmog'i, 978,9 kilometr gaz quvurlari tarmog'i, 961,2 kilometr elektr tarmog'i (304 ta transformator stansiyasi) aholiga xizmat ko'rsatdi⁶⁶.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, shahar transport va kommunikatsiyasi tizimlari o'rganilayotgan davr davomida tubdan yangilanish bosqichini o'tadi. Ko'rilgan chora-tadbirlar, amalga oshirilgan ishlar natijasida bu sohalar shaharda yig'ilib qolgan muammolar bosqichma-bosqich hal etilgan.

Mazkur bobning "Erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi va shahar ijtimoiy-iqtisodiy hayoti" deb nomlangan uchinchi paragrafida Qo'qon erkin iqtisodiy zonasining tashkil topishi, korxonalar faoliyati hamda muhandislik kommunikatsiya tizimlari haqida ma'lumotlar tahlil qilingan.

Qo'qon erkin iqtisodiy zonasi (EIZ) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-sonli "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni asosida tashkil topgan⁶⁷. Qo'qon EIZ hududi jami 709,3 gektar maydondan iborat bo'lib, A (268,0 gektar), B (58,3 gektar), V (383,0 gektar) zonalariga bo'lingan. Qo'qon EIZ asosan, Uchko'prik tumani (651,0 gektar), Qo'qon shahri (58,3 gektar) va Beshariq tumani (4,4 gektar) hududlarida tashkil topgan. EIZ hududida tashkil topadigan korxonalar uchun barcha soliq turlari (yer, mol-mulk, suv resurslaridan foydalanganlik, foyda) bo'yicha imtiyozlar joriy qilingan. Soliq imtiyozlari muddati EIZga kiritilayotgan investitsiya miqdoriga qarab, 3 yildan 10 yilgacha bo'lgan⁶⁸.

2017–2022-yillar davomida Qo'qon EIZda jami 135 ta ishlab chiqarish korxonasi faoliyat yuritishga ruxsat beruvchi guvohnoma olgan. Jumladan, 2020-yilda Qo'qon EIZda 44 ta loyihalar amalga oshirilib, jami yangi ishlab chiqarish loyihalariga 109,0 million dollarlik investitsiyalar jalb qilingan⁶⁹.

⁶³ FVDA. 1230-fond, 2-ro'yxat, 16-yig'majild, 10–11-varaqlar.

⁶⁴ FVDA. 1230-fond, 5-ro'yxat, 32-yig'majild, 108–109-varaqlar.

⁶⁵ FVDA. 1230-fond, 5-ro'yxat, 38-yig'majild, 36-varaq.

⁶⁶ QShDA. 1228-fond, 1-ro'yxat, 22-kitob, (2017), 13. 10. 2017. 511-sonli qaror. 2-ilova.

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-sonli "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-3096605>.

⁶⁸ Qo'qon erkin iqtisodiy zonasi joriy arxivi. Qo'qon erkin iqtisodiy zonasi taqdimoti. – Qo'qon, 2017. 3, 6-varaqlar.

⁶⁹ Qo'qon erkin iqtisodiy zonasi joriy arxivi. Qo'qon erkin iqtisodiy zonasi taqdimoti. – Qo'qon, 2021. 11-varaq.

Natijada, 2020-yilda 28,5 million, 2021-yilda 56,8 million, 2022-yilda esa 105,5 million dollarlik mahsulotlar xorij davlatlariga eksport qilingan⁷⁰.

2017–2018-yillarda Qo‘qon EIZ hududida dastlab 4 va 5 qavatli ko‘p xonali uylar, 2019-yilda 10 ta 7 qavatli 420 ta xonadondan iborat arzon uy-joylar bunyod etildi⁷¹. 2019-yilda “Qo‘qon” EIZda 4,6 kilometr ichki avtomobil yo‘llarini qurish uchun 5000,0 million so‘m, 17,96 kilometr uzunlikdagi suv tarmog‘ini qurish uchun esa 6767,3 million so‘m mablag‘ ajratilgan⁷².

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Qo‘qon shahri erkin iqtisodiy zonasini tashkil etilishi mintaqadagi aholini ish bilan ta‘minlash, viloyat va shahar iqtisodiy salohiyatini oshirishga hissasini qo‘shib kelmoqda.

Dissertatsiyaning **“Madaniy-ma‘rifiy, ta‘lim tizimidagi zamonaviy infratuzilmalarning Qo‘qon shaharsozligida o‘rni va ahamiyati”** nomli uchinchi bobining dastlabki paragrafi “Madaniy-ma‘rifiy va ta‘lim muassasalarining zamonaviy shahar qiyofasini shakllanishidagi o‘rni” masalasiga bag‘ishlangan.

Istiqlolning dastlabki yillarida shahar madaniyat bo‘limiga qarashli 17 ta kutubxonaning 11 tasi, 8 ta klub muassasasidan 2 tasi o‘z binosiga ega bo‘lmagan, ular shahardagi turar-joylar trestiga qarashli binolarda yiliga 160,0 ming so‘m ijara haqi to‘lab faoliyatini olib borgan. Masalan, G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot muzeyi joylashgan bino o‘z vaqtida 5 ta oilaga ajratib berilgan⁷³.

O‘lkashunoslik muzeyida 1994-yilda Toshkentning “Rassom” badiiy ishlab chiqarish kombinati tomonidan jihozlash ishlari olib borilgan hamda mahalliy budjetdan 202,4 ming so‘m mablag‘ ajratib berilgan⁷⁴. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2009-yil 15-dekabrda “Qo‘qon shahar infrastrukturasini va arxitekturaviy ko‘rinishini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1239-sonli qarorining qabul qilinishi natijasida shahar hududida joylashgan madaniy-ma‘rifiy binolarning arxitekturasi va shaharsozlikdagi ahamiyati ortgan⁷⁵. Keyinchalik, muzeylar faoliyatini tartibga solish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-maydagi Qaroriga muvofiq, Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi tashkil etilgan⁷⁶.

Shahar madaniy hayotida teatrlar ham alohida o‘ringa ega. Jumladan, 1995-yilda Qo‘qon shahar hokimining 13-sonli qarori asosida Hamza nomidagi Qo‘qon shahar musiqali drama teatri ro‘yxatga olinib, 1996–1997-yillarda maxsus teatr asbob-uskunalari sotib olish uchun jami 1300,0 ming so‘m, tuzatish uchun esa jami 600,0 ming so‘m mablag‘ ajratilgan⁷⁷. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 29-iyuldagi 246-sonli qarori bilan Hamza nomli musiqali drama teatrini nomi

⁷⁰ Qo‘qon erkin iqtisodiy zonasi joriy arxivi. Qo‘qon erkin iqtisodiy zonasi taqdimoti. – Qo‘qon, 2025. 4–5-varaqlar.

⁷¹ <https://uzsm.uz/uz/investorlar-diqqatiga/industrial-zonalari/erkin-iqtisodiy-zona-qo-qon/>. (21.05.2025)

⁷² 2019-yilda erkin iqtisodiy zonalarining avtomobil yo‘llari, suv ta‘minoti va kanalizatsiya tarmoqlarini qurish va ta‘mirlash bo‘yicha yo‘l xaritasi. 21.12.2018. PF-5600-son. 1-ilova. <https://www.lex.uz/docs/-4117767? ONDATE=27.04.2024%2000>.

⁷³ FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yxat, 11-yig‘majild, 176–177-varaqlar.

⁷⁴ FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yxat, 58-yig‘majild, 189-varaq.

⁷⁵ FVDA. 1230-fond, 5-ro‘yxat, 117-yig‘majild, 145-varaq.

⁷⁶ <https://www.lex.uz/acts/-4358328?ONDATE=30.05.2019%2000>.

⁷⁷ FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yxat, 92-yig‘majild, 196–197-varaqlar; 200-varaq.

“Qo‘qon shahar musiqali drama teatri” nomiga almashtirilgan⁷⁸. Shaharda faoliyat olib borayotgan ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida esa 2016-yilda Obodonlashtirish boshqarmasi tasarrufidagi mehmonxona binosi o‘rnida “Ijodiyot markazi” tashkil qilindi⁷⁹.

Shu bilan birgalikda shahar aholisi madaniy hordiq chiqarishi uchun “Faxriylar”, “Nodirabegim” (2008-yildan boshlab uning o‘rnida Yoshlar bog‘i tashkil etildi), “Furqat”, “Muqimiy”, O‘zbekiston-Koreya do‘stlik bog‘i kabi bir nechta istirohat bog‘lari faoliyat yuritgan⁸⁰.

1995-yilda shahar hududida jami 13 ta oliy va o‘rta-maxsus o‘quv yurtlarida o‘quvchi va talabalar ta‘lim olgan⁸¹. Shuningdek, 1999–2008-yillarda jami 12840 o‘quvchi o‘rniga ega 16 ta kasb-hunar kolleji va akademik litseylar foydalanishga topshirilgan⁸².

Yuqoridagi malumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, yangi bunyod etilgan, rekonstruksiya qilingan va ta‘mirlangan madaniy-ma‘rifiy hamda ta‘lim muassasalari obyektlari zamonaviy shaharsozlikning shakllanishi va rivojlanib borishida alohida o‘ringa ega bo‘lib, ular shahar qiyofasini tubdan o‘zgarishiga olib kelish bilan birga, turizm salohiyatini oshishiga ham xizmat qildi.

Mazkur bobning “Madaniy-marifiy muassasalar faoliyati va shahar madaniy hayotidagi ahamiyati” nomli ikkinchi paragrafida shahar hududidagi muzeylar, kutubxonalar, istirohat bog‘lari, teatr va kinoteatrlar faoliyati hamda ularning madaniy hayotdagi ahamiyati masalalari yoritilgan. Masalan, shahar hokimining 1993-yil 1-oktabrdagi 204-F sonli farmoyishiga binoan, shahar tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyatiga 200,0 ming so‘m mablag‘ ajratilgan⁸³. 1996-yilda shahar hududida Respublika ahamiyati darajasidagi 44 ta, mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan 48 ta tarixiy, madaniy va me‘morchilik obidalari ro‘yxatga olingan⁸⁴.

2019-yilda shaharda “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonasi, Amaliy san‘at, Buyuk allomalar, G‘afur G‘ulom nomidagi Qo‘qon adabiyot, Muqimiy hujra hamda Hamza uy-muzeylari faoliyat olib borgan⁸⁵. Ularda jami 47815 ta eksponat mavjud⁸⁶. 2018–2019-yillarda muzeylarga jami yakka tartibda 41229 nafar fuqaro tashrif buyurgan.

Mustaqillik yillarida teatr sohasida O‘zbekiston xalq artisti Shafolat Rahmatullayeva (1941–2024), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Xursanoy

⁷⁸ QShDA. 1228-fond, 1-ro‘yxat, 1-kitob, (2017), 07.01.2017. 11-sonli qaror.; <https://lex.uz/ru/docs/-3013785>.

⁷⁹ QShDA. 1228-fond, 1-ro‘yxat, 31-kitob, (2016), 10.12.2016. 674-sonli qaror.

⁸⁰ FVDA, 1230-fond, 1-ro‘yhat, 98-yig‘majild, 16–17-varaqlar; 117-yig‘majild, 48–49-varaqlar; 2-ro‘yxat, 35-yig‘majild, 193–194-varaqlar; 5-ro‘yxat, 36-yig‘majild, 115-varaq; 57-yig‘majild, 10-varaq; QShDA, 1228-fond, 1-ro‘yxat, 8-kitob, (2018), 17.02.2018. 141-sonli qaror.

⁸¹ FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yxat, 64-yig‘majild, 12-varaq.

⁸² FVDA. 1230-fond, 5-ro‘yxat, 53-yig‘majild, 4-varaq.

⁸³ FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yxat, 38-yig‘majild, 206-varaq.

⁸⁴ FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yxat, 107-yig‘majild, 45–48-varaqlar.

⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-maydagi VMQ-443-sonli “Sarmishsoy”, “Shahrisabz”, “Termiz” va “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori // <https://www.lex.uz/acts/-4358328>.

⁸⁶ Muzey fondlari haqida umumiy ma‘lumotlar. (muzey filiallari va bo‘linmalari ma‘lumotlarini qo‘shgan holda). Qo‘qon shahar statistika bo‘limi. – Qo‘qon, 2020. 1-varaq.

Umarova kabi yetakchi san'atkorlar faoliyat yuritgan⁸⁷. Kinematografiya sohasida esa D.Masaidov (filmda Qalandar obrazini yaratgan⁸⁸) va Z.Qobilovlar ssenariysi asosida Qo'qon xonligining Umarxon va Nodirabegim davri haqida hikoya qiluvchi "Qo'qon shamoli" filmi (2019-yilda tasvirga olingan)ni misol qilish mumkin⁸⁹.

Qo'qon nomoddiy madaniy meroslari tarkibiga dorbozlik san'atini ham kiritish mumkin. Jumladan, Respublikadagi 40 dan ortiq dorbozlar jamoalari orasida "Qo'qon minori" o'zining munosib o'rniga ega⁹⁰.

Respublika bo'yicha 300 dan ortiq folklor-etnografik ansambllar mavjud bo'lib, Qo'qonda faoliyat olib boruvchi "Omon yor" folklor-etnografik ansambli (rahbari – Lutfiya Mirzayeva) ijro uslubi va repertuari jihatidan boshqa ansambllardan farq qiladi⁹¹. Bundan tashqari, Qo'qon shahri nomoddiy madaniy meros turi - askiyachilik bilan ham mashhur⁹². Qo'qon askiyachilar klubiga so'nggi yillarda (2022-yilgacha) Jo'raxon Po'latov rahbarlik qilib kelgan⁹³.

Istiqolning ilk yillarida shaharda 17 ta, 2006-yilda esa 18 ta kutubxona aholiga xizmat ko'rsatgan⁹⁴. 2022-yilda Xudoyorxon o'rdasi qarshisida Amiriy nomidagi kutubxona o'z faoliyatini boshlagan⁹⁵. Hozirgi kunda kutubxonada 120 mingdan ziyod kitob fondi mavjud⁹⁶.

Shaharda hunarmandchilik sohasining jadal rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan "Xalqaro Hunarmandchilik festivali" Qo'qon shahrida 2019-yil 10–15-sentyabr kunlari o'tkazilgan⁹⁷. Festival tadbirlari uchun O'rda maydoni atrofida jami 17 gektar joy tayyorlangan bo'lib, tadbir doirasida bu yerda 83 ta davlatdan tashrif buyurgan 191 nafar xorijlik va mahalliy 1100 dan ortiq hunarmandlar 29 yo'nalish bo'yicha o'z mehnat mahsulotlarini namoyish qilganlar⁹⁸.

O'rganilayotgan davr mobaynida shahar hududida mavjud muassasalarning ta'mirlanishi, rekonstruksiya qilinishi, yangilarining bunyod etilishi, muassasalarning faoliyat turlarini o'zgartirish va takomilashtirish borasidagi chora-tadbirlar ularning faoliyatini yangi bosqichga ko'tardi. Shuningdek, Qo'qon shahrida "Xalqaro hunarmandchilik festivali" kabi nufuzli tadbirning tashkil

⁸⁷ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. "Қ" харфи. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2004. – Б. 470.

⁸⁸ Soatova Sh. Qo'qon shamoli – oddiy bo'lmagan film. 07.10.2019 // <https://www.xabar.uz/mualliflar/shahnoza/qoqon-shamoli-oddiy-bolmag.> (02.07.2025)

⁸⁹ Qo'qon shamoli aktyorlari haqida. <https://www.kino-teatr.ru/kino/movie/post/134812/titr.> (02.07.2025)

⁹⁰ Meliboyev A. Milliy dorbozlik san'ati istiqboli // <https://uzhurriyat.uz/2015/12/12/milliy-dorbozlik-san-ati-istiqboli.> (02.07.2025).

⁹¹ Vaisov M.E. Qo'qon milliy ohanglari va yallalari // Scientific review of the problems and prospects of modern science and education (3rd international scientific and practical conference). – Canada, T.1., N 3., 2025. – Pp. 17-18.

⁹² FVDA. 1230-fond, 1-ro'yxat, 102-yig'majild, 6-varaq.

⁹³ <https://kun.uz/news/2022/02/17/askiyachi-joraxon-polatov-vafot-etdi?q=%2Fnews%2F2022%2F02%2F17%2.> (02.07.2025)

⁹⁴ FVDA. 1230-fond, 5-ro'yxat, 33-yig'majild, 49-varaq.

⁹⁵ Madiyeva R. Qo'qonda Amiriy kutubxonasi ochildi // <https://yuz.uz/uz/news/qoqonda-amiriy-kutubxonasi-ochildi.> (02.07.2025)

⁹⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Amiriy_kutubxonasi; [https://www.facebook.com/share/g/1AaCPoqmBG/.](https://www.facebook.com/share/g/1AaCPoqmBG/) (02.07.2025)

⁹⁷ QShDA. 1228-fond, 1-ro'yxat, 59-kitob. 05. 11. 2018. 997-sonli qaror; QShDA. 1228-fond, 1-ro'yxat, 3-kitob. 08. 11. 2018. 164-F-sonli farmoyish.

⁹⁸ Ermatov E. Fotoreportaj: Qo'qonda 5 kun davom etgan "Xalqaro hunarmandchilik festivali" yakuniga yetdi. 16. 09. 2019 // <https://www.kun.uz/news/2019/09/16.> (03.07.2025).

etilishi shahar infratuzilmasi hamda madaniy-ma'rifiy ishlarning ahamiyatini oshirish uchun xizmat qildi.

XULOSA

“Qo‘qon shahri zamonaviy infratuzilmalarining shakllanishi va taraqqiyoti (1991–2022-yillar)” mavzusini o‘rganish jarayonida shunday xulosalarga kelindi:

1. Qo‘qon shahri o‘zining tarixi va shaharning “eski” va “yangi” qismlarining bugungi kundagi o‘zaro uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Shahar aholisining o‘ziga xosligi hozirgi kunda hunarmandchilik an‘analarida, iqtisodiy imkoniyatlari, diniy tolerantlik hamda kundalik maishiy hayoti an‘analarida lokal xususiyatlarini namoyon qiladi. Shu bilan birga, shahar aholisining demografik holati tabiiy o‘shish hisobiga ko‘tarilib borayotganligi ham shahar iqtisodiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shsada, o‘ziga xos muammolarni, ya‘ni yangi ish o‘rinlariga, uy-joyga bo‘lgan ehtiyojning ortishi, shahar transport-muhandislik kommunikatsiyalari tizimiga qo‘shimcha yuklamalarni ham keltirib chiqaradi.

2. Shahar hududidagi barcha zamonaviy infratuzilma obyektlarining rivojlanishi avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Farg‘ona viloyati va Qo‘qon shahar hokimlari qarorlari, farmonlari hamda farmoyishlari asosida tartibga solingan. Bu esa shahar infratuzilmasining arxitektura, iqtisodiyot (sanoat, kichik biznes, bozorlar), transport-muhandislik kommunikatsiya (gaz, elektr, ichimlik va oqava suv) kabi tarmoqlari, madaniy-ma'rifiy muassasalarining (teatr, muzeylar, kutubxonalar) qonuniy asoslarda faoliyat yuritishini ta'minlagan.

3. Shahar sanoat korxonalarini mustaqillikning dastlabki davrlarida asosan, barter (tovar, mahsulot almashish) shaklida savdo-sotiq qilgan bo‘lsa, 2000-yillardan boshlab hududdagi iqtisodiy o‘shish natijasida yirik va o‘rta sanoat korxonalarining soni ortib, chet el investitsiyasini jalb qilish kuchaygan. 2011-yildan boshlab esa iqtisodiyotda o‘rta va kichik biznes tarmog‘ini rivojlantirish yetakchi ahamiyatga ega bo‘lgan. “Harakatlar strategiyasi” davrida sanoat korxonalarining eksport salohiyati keskin ortib, qo‘shma korxonalar uchun qulay imtiyoz va imkoniyatlar yaratilgan.

4. Bozorlar shahar kundalik hayotining ajralmas qismi va mahalliy budjetning asosiy mexanizmi sifatida shahar iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. So‘ngi yillarda bozorlar faoliyati tartibga solinib, noqonuniy savdo faoliyatiga chek qo‘yildi. Ularning aksariyat qismi qayta rekonstruksiya qilinishi natijasida aholi savdo-sotiq ishlari uchun qulay imkoniyat yaratish bilan birgalikda, bozorlardan mahalliy budjetga tushadigan daromadlarning ortishiga xizmat qildi.

5. Transport va muhandislik-kommunikatsiya tizimlari huquqiy asoslar yordamida tahlil qilindi. Dastlabki bosqichda shahar aholisining ortib borayotgan hamda zichligini inobatga olgan holda, transport va muhandislik-kommunikatsiya tizimiga tinimsiz ravishda yuklanmalar miqdori ortib kelgan. Natijada, transport va muhandislik-kommunikatsiya sohalarida bir qator muammolar vujudga kelgan. Bu esa so‘nggi yillarda tarmoqlarga har yili ajratiladigan mablag‘larning ortishiga

hamda chet el investitsiyasini jalb qilish orqali tarmoqlarni yangilash va rekonstruksiya qilish jarayonlarini kuchaytirishga olib keldi.

6. Qo‘qon erkin iqtisodiy zonasi chet el va mahalliy investorlar uchun qulay muhit va soliq imtiyozlarini yaratib bergan bo‘lib, buning natijasida shahar va atrof tumanlar aholisi ish bilan ta‘minlash imkoniyatlari ortib bordi. Shuningdek, hududda ishlab chiqaruvchilar sonining ortishi ko‘p qavatli uy-joylarga bo‘lgan talabning ortishiga va qurilish jarayonlarining jadallashishiga olib kelgan. Natijada, hudud imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida turar-joy va korxonalar muntazam ravishda kommunal soha (gaz, elektr, suv) bilan ta‘minlangan.

7. Shahar hududidagi mavjud madaniy-ma‘rifiy (muzey, kutubxona, kino va teatr, istirohat bog‘lari) hamda ta‘lim muassasalari shahar arxitekturasi va qiyofasiga alohida ko‘rk bag‘ishlagan. Shuningdek, yillar davomida shahardagi muzeylar va kutubxonalar soni ortib borgan. Muzeylar qayta ta‘mirlanib, tarixiyli va milliyli saqlanib qolingan bo‘lsa, kutubxonalar fondlari esa yangi kitoblar bilan boyitib borilgan. Natijada, ularning shahar madaniy-ma‘rifiy hayotidagi ahamiyati ortib borgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ilgari surish mumkin:

1. Oliy ta‘lim muassasalari o‘quv rejasiga “Yangi O‘zbekistonda zamonaviy shaharsozlik an‘analari” nomli maxsus kursini tashkil etish hamda o‘quv qo‘llanma yaratishni kiritish.

2. Mintaqalarda turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladigan “Yangi O‘zbekiston shaharlari: tarix va zamon” ruknidagi teleko‘rsatuvlar tayyorlash hamda namoyish etish.

3. Shahar aholisi sonining ortib borishi natijasida vujudga kelayotgan uy-joy muammosini shahar hududidan tashqarida joylashgan, qishloq xo‘jaligi uchun yaroqsiz yer maydonlarida ko‘p qavatli uy-joylarni alohida massivlar sifatida qurish orqali hal qilish.

4. Madaniy-ma‘rifiy muassasalar bilan birgalikda ekoturizm va etnoturizm salohiyatini oshirish maqsadida etno-uy muzeylari salmog‘ini oshirish, turizm ko‘chalarini tashkil etish, gastronomik turizm imkoniyatlarini kengaytirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

КОДИРОВ МУХСИНЖОН МУХТОРЖОН УГЛИ

**ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ СОВРЕМЕННОЙ
ИНФРАСТРУКТУРЫ ГОРОДА КОКАНДА (1991-2022 ГГ.)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема докторской диссертации зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.4.PhD/Tar1666.

Диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.fdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Йулдошев Салимжон Валиевич
доктор философии по историческим наукам (PhD),
доцент

Официальные оппоненты: Ерметов Аваз Абдуллаевич
доктор исторических наук (DSc), профессор
Нуриддинов Турдали Камбарович
доктор философии по историческим наукам (PhD),
доцент


Ведущая организация: Андижанский государственный университет


Защита диссертации состоится «2» 05 2026 г. в 9⁰⁰ часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 при Ферганском государственном университете (Адрес: город Фергана, улица Мураббийлар, Ферганский государственный университет, Факультет истории, 2-этаж, зал совещаний. Тел.: (99873) 244-44-02; факс: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz.)


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за № 738). (Адрес: 150100, город Фергана, улица Мураббийлар, дом №19. Здание ИРЦ). Тел.: (99873) 244-44-94).

Автореферат диссертации разослан «14» 04 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 7 от «14» 04 2026 года).




Б.А.Усмонов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор исторических наук (DSc),
профессор


А.Б.Мусаев
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философии по историческим
наукам (PhD)


М.Г.Абдуллаев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
исторических наук (DSc), профессор.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В условиях современной глобализации возрастает значение городов как центров торговли, науки и культуры. Особенно в условиях урбанизации наблюдается необходимость развития инфраструктуры городов с сохранением их историчности, внедрения современных технологий в транспортные и инженерно-коммуникационные системы, а также подготовки квалифицированных специалистов. Актуальное значение приобретает изучение мирового практического опыта развития городской инфраструктуры и его гармонизация с исторически сложившимися традициями градостроительства, комплексное развитие городских территорий, повышение уровня жизни населения, совершенствование современных транспортных и инженерно-коммуникационных услуг. Во многих научно-исследовательских центрах и высших учебных заведениях мира проводятся широкомасштабные исследования развития современной городской культуры, в частности, архитектуры, градостроительства, классификации и типологии городов, демографии населения, миграции, процессов урбанизации, а также агломерации¹, социально-экономических изменений в городах. В частности, в таких международных исследовательских центрах, как Global Urban Development (GUD - 2001), Cities Alliance (1999), International Society of City and Regional Planners (ISOCARP - 1965), European Urban Knowledge Network (EUKN), International Institute for Environment and Development (IIED²) осуществляются значительные работы по данному актуальному вопросу. В условиях перехода к новым политико-экономическим отношениям в Узбекистане, в частности в Ферганской долине, возникает необходимость исследования поэтапного развития национальной и региональной экономики, формирования инфраструктуры территорий, организации транспортно-коммуникационных сетей на основе современных требований, а также комплексного развития этих вопросов.

После обретения Республикой Узбекистан независимости государственная политика включила в себя такие процессы как проведение экономических реформ, привлечения иностранных инвестиций в производственные предприятия и повышение их экспортного потенциала, развитие транспортно-инженерных коммуникаций и торговых систем городов. В частности, в результате осуществляемых сегодня широкомасштабных реформ создается нормативно-правовая база, служащая улучшению социально-экономической жизни городов, повышению благосостояния населения, развитию процессов урбанизации. Как отметил

¹ Агломерация – в демографии означает, что крупный город и окружающие его села объединяются посредством социально-экономических связей, образуя единую демографическую и хозяйственную зону. Национальная энциклопедия Узбекистана. Буква А. Национальная энциклопедия Узбекистана. – Ташкент. Государственное научное издательство. – С. 149.

² <https://www.globalurban.org/> (10.06.2023); <https://www.citiesalliance.org/>(10.06.2023); <https://isocarp.org/> (10.06.2023); <https://eukn.eu/>; <https://www.iied.org/> (10.06.2023).

Ш.М.Мирзиёев, «Совершенствование нормативно-правовой базы развития урбанизации, укрепление финансовой базы жилищного строительства является одной из важных задач, стоящих перед нами»³.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Законе № ЗРУ-676 Республики Узбекистан от 22 февраля 2021 года «Об утверждении Градостроительного кодекса Республики Узбекистан», в Постановлении № ПКМ-341 Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по ускоренному развитию транспортной, производственной и инженерно-коммуникационной инфраструктуры свободных экономических зон «Ургут», «Гиждуван», «Коканд» и «Хазарасп» на 2017-2019 годы» от 2 июня 2017 года, Постановлении №ПКМ-658 «О Программе мер по комплексному развитию города Коканда Ферганской области на 2017-2019 годы» от 22 августа 2017 года, Постановлении № ПКМ-687 «О мерах по дальнейшему развитию ремесленничества в городах Маргилан, Коканд и Риштанском районе Ферганской области» от 2 сентября 2017 года, Постановлении №ПКМ-1001 «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию городов Маргилан и Коканд Ферганской области на 2020-2024 годы» от 14 декабря 2019 года»⁴ от 4 августа 2010 года и Постановлении №1001 «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию городов Маргилан и Коканд Ферганской области в 2020-2024 годах» от 14 декабря 2019 года а также задач, определенных в нормативно-правовых документах, касающихся отраслей градостроительства города Коканда

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии республики «І.Формирование и осуществление системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. История и этапы развития города Коканда всегда были в центре внимания исследователей. Причину того, что этот город является объектом исследования, можно объяснить тем, что он издавна служил экономическим, политическим и культурным центром, в том числе выполнял функцию столицы в период ханств. Анализ историографии

³ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. — Ташкент: Узбекистан, 2024. — С. 369.

